ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

Til va migratsiya: til kompetensiyasi migratsiya mobilligi, integratsiya va kasbiy moslashuvning institutsional sharti sifatida

Raxmanov Botir Maxmudovich
botirraxmanonov67@gmail.com
O‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.22874381

Annotatsiya. Mazkur maqolada til va zamonaviy migratsiya jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tadqiq etilib, til kompetensiyasining, avvalo, kommunikativ resurs sifatidagi maqomdan migratsion mobillik, ijtimoiy integratsiya va kasbiy moslashuvning institutsional jihatdan muhim shartiga aylanish jarayoniga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, til bilish migrant uchun viza olish, mamlakatda bo‘lishga ruxsat berish, ta’lim olish, mehnat bozoriga kirish, integratsiya dasturlarida ishtirok etish hamda fuqarolikni olish bilan bog‘liq institutsional jarayonlarga kiritilmoqda.
Shuningdek, til migratsion mobillikni saralash va tartibga solish mexanizmi, kasbiy malakaning pasayishi (dekvalifikatsiya) omili, ijtimoiy-huquqiy integratsiyaning sharti hamda ijtimoiy tengsizlik manbai sifatidagi jihatlari alohida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida til kompetensiyasi zamonaviy migratsiya siyosati va xalqaro mehnat bozorining tarkibiy elementlaridan biriga aylanib borayotgani to‘g‘risida xulosa chiqariladi.
Kalit so‘zlar: migratsiya, til kompetensiyasi, chet tili, til siyosati, migratsiya siyosati, til integratsiyasi, migratsion mobillik, mehnat bozori, kasbiy dekvalifikatsiya, ko‘p tillilik.

Language and Migration: Language Competence as an Institutional Condition of Migration Mobility, Integration, and Professional Adaptation

Rakhmanov Botir Makhmudovich
botirraxmanonov67@gmail.com
Lecturer
Uzbekistan State University of World Languages
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.22874381

Abstract. This article examines the interrelationship between language and contemporary migration processes, with particular attention paid to the transformation of the status of language competence from primarily a communicative resource into an institutionally significant condition of migration mobility, social integration, and professional adaptation. In particular, language proficiency has become embedded in institutional processes related to visa acquisition, obtaining permission to reside in a country, access to education, entry into the labor market, participation in integration programs, and acquisition of citizenship.
Furthermore, the article analyzes language as a mechanism for the selection and regulation of migration mobility, a factor contributing to professional deskilling, a condition for social and legal integration, and a potential source of social inequality. The study concludes that language competence is gradually becoming one of the structural elements of contemporary migration policy and the international labor market.
Keywords: migration, language competence, foreign language, language policy, migration policy, language integration, migration mobility, labor market, professional deskilling, multilingualism.

Zamonaviy migratsiya jarayonlari globallashib brogani sari o’ta murakkab ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy ahamiyat kasb etmoqda. Unda ishtirok etayotgan shaxs migrant sifatida turli

mamlakatlar o‘rtasida harakatlanishi va kun sayin ortib ketayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun nafaqat malakali mutaxasis bo’lishi, balki uni qabul qilayotgan davlatning madaniyati va tilini ham puxta bilishi kerakligi odatiy holga aylanib bormoqda. Mavjud tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til ko‘nikmalari migrantlarning begona jamiyatga integratsiyalashuvida eng muhim omillardan biri hisoblanadi, chunki qabul qiluvchi jamiyat tilini egallash shaxsning ijtimoiy hayot va mehnat bozorida ishtirok etish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir[1].

Zamonaviy xalqaro mehnat bozori migrantlarga bir vaqtning o‘zida ham kasbiy, ham lingvistik talablarni qo‘ymoqda. Ish beruvchi mutaxassisning nafaqat kasbiy malakasini, balki o’z tashkilotining lingvistik muhitida kasbiy faoliyatga oid vazifalarni amalga oshira olish qobiliyatini ham baholamoqda. Bu, ayniqsa, tibbiyot, ta’lim, huquqshunoslik, muhandislik, axborot texnologiyalari va kasbiy faoliyat kommunikatsiyaning aniqligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa sohalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois bugungi kunga kelib, til kompetensiyasini inson kapitalidagi kasbiy malakaning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Ma’lumki, agar zamonaviy migratsiya jarayonlarida istirok etayotgan malakali mutaxassisning til kompetensiyasi past darajada bo’lsa, u o‘z mutaxassisligi bo’yicha ishlay olmasligi yoki malakasiga mos kelmaydigan lavozimni egallashi mumkin. Bu ma’noda tilni nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki imkoniyatlarni cheklovchi institutsional resurs sifatida ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki hozirgi kunda mazkur resursdan foydalanish imkoniyati davlat organlari, ta’lim muassasalari, ish beruvchilar hamda migratsiya institutlari tomonidan tartibga solinmoqda.

Mehnat migratsiyasining eng muhim muammolaridan biri – bu kasbiy dekvalifikatsiya hodisasidir, ya’ni migrant ish beruvchi tomonning ayrim talablariga rasman mos kilmaganligi sababli uning kasbi yoki mutaxassisligi tan olinmaydi. Xususan, migrant yuqori darajadagi ta’lim va kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi mumkin, biroq qabul qiluvchi mamlakat tilini yetarli darajada bilmaslik ushbu bilim va ko‘nikmalardan foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo’yadi. Natijada o‘ziga xos inkor qilib bo’lmaydigan qarama-qarshilik yuzaga keladi: yuqori darajadagi kasbiy malaka bor, ammo migrantdagi yetarli bo‘lmagan til kompetensiyasi uni teng huquqli haq olish imkoniyatlardan cheklab qo’yadi.

Ayni chog’da eng rivojlangan mehnat bozori va migratsiya manzili sifatida e’tirof etilayotgan Evropa Ittifoqida til ko‘nikmalari ta’lim va boshqa ko‘nikmalar qatori migrantlarning jamiyatga integratsiyalashuvida muhim tarkibiy qism sifatida qaraladi. Demak, til nafaqat ishga joylashishning o‘ziga, balki bandlik sifati, kasbiy mobillik hamda bajarilayotgan ishning migrant malakasiga muvofiqligiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ko‘plab davlatlarda qabul qiluvchi mamlakat tilini bilish rasmiy migratsiya tartib-taomillari bilan bevosita bog‘langanligi alohida e’tiborga loyiqdir. Masalan, Germaniyada til tayyorgarligi integratsiya kurslari tizimiga institutsional jihatdan kiritilgan bo‘lib, ushbu kurslarning asosiy maqsadi B1 darajasiga erishish hamda shaxsning kundalik hayotda mustaqil ravishda ishtirok etish va faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir[2].

Shunday qilib, konseptual jihatdan migratsiya jarayonlarida til amal qilishining ikkita darajasini farqlash mumkin bo’ladi:

- kommunikativ daraja — til migrant va qabul qiluvchi jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minlovchi vosita sifatida;
- institutsional daraja — til muayyan huquqiy, iqtisodiy va ta’lim olish iimkoniyatlaridan foydalanishning normativ jihatdan mustahkamlangan sharti sifatida.

Aynan ikkinchi daraja tilni migratsiya siyosatining mustaqil omili sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bunda til kommunikativ resurs va institutsional shart sifatida namoyon bo’ladi. An’anaviy lingvistik yondashuv nuqtayi nazaridan olib qaralganda til, avvalo, kommunikativ,

kognitiv va boshqa ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Biroq migratsiya sharoiti tilning funksional imkoniyatlari va qo‘llanish doirasini sezilarli darajada kengaytiradi.

Migrant nafaqat til sohiblari bilan muloqot qilish zaruriyatiga, balki davlat muassasalari, ish beruvchilar, ta’lim tashkilotlari, tibbiyot muassasalari, banklar hamda boshqa institutsional tuzilmalar bilan o‘zaro munosabatga kirishish zaruriyatiga ham duch keladi. Binobarin, tilni yetarli darajada bilmaslik nafaqat shaxslararo kommunikatsiyani, balki insonning institutsional resurslardan foydalanish imkoniyatini ham cheklashi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda lingvistik integratsiya migrantlarning umumiy integratsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. OECD va Yevropa Komissiyasi qabul qiluvchi davlat tilini bilish migrantlarning jamiyat va iqtisodiy hayotda to‘laqonli ishtirok etish imkonini beruvchi asosiy ko‘nikmalardan biri ekanligini ta’kidlaydi[3]. Shu sababli, muayyan darajadagi lingvistik kompetensiya migratsiya imkoniyatlarini qo‘lga kiritish, saqlab qolish yoki kengaytirish uchun rasman yoki amalda zarur shartga aylangan holatni ifodalash maqsadida „migratsiyaning institutsional sharti“ tushunchasidan foydalanish to’g’ri bo‘ladi.

Lingvistik kompetensiyaning institutsionalizatsiyasi, ya’ni ma’lum bir me’yoriy va ilmi-amaliy asoslarga ega bolishi, bevosita globallashuv bilan bog’liq. Globallashuv aholining xalqaro mobilligini kuchaytirish bilan bir qatorda, shaxsning ko‘p tilli muhitda faoliyat yurita olish qobiliyatiga qo‘yiladigan talablarning ortishiga ham olib keldi. Mazkur sharoitda tilga ikki tomonlama maqomga ega bo‘lgan voqelik sifatida qaraladi. Bir tomondan, u shaxsning mobilligini oshiruvchi individual inson kapitali sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqa tomondan esa, lingvistik kompetensiya davlat tomonidan tartibga solinadigan obyektga aylanadi.

Shu o’rinda til bilish (yoki bilmaslik) ijtimoiy tengsizlik omili sifatida namoyon bo’lisini ham alohida qayd etish mumkin. Xususan, tilga qo‘yiladigan talablarning institutsionallashuvi nafaqat ijobiy, balki potensial jihatdan muammoli oqibatlarga ham olib kelishi mumkin[4]. Agar til muayyan resursdan foydalanishning majburiy shartiga aylansa, tilga tayyorgarlik darajasidagi tafovutlar ijtimoiy farqlanishga asos bo’lib xizmat qilishi mumkin. Tilni yuqoriroq darajada bilgan holda kelgan migrantlar ishga joylashish, ta’lim olish va ijtimoiy munosabatlarda muayyan ustunliklarga ega bo‘ladilar. Aksincha, til kompetensiyasi past darajada bo‘lgan migrantlar quyidagi muammolarga duch kelishlari mumkin:

· mehnat bozoridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanishi;
· vositachilarga qaramlik;
· mehnat ekspluatatsiyasiga duchor bo‘lish xavfi;
· kasbiy dekvalifikatsiya;
· ijtimoiy izolyatsiya.

Shu sababli til siyosatiga bir vaqtning o‘zida ham integratsiya vositasi, ham tengsizlikning qayta ishlab chiqarilishining potensial mexanizmi sifatida qarash mumkin.

Migratsiya integratsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar qabul qiluvchi mamlakat tilini bilish darajasi ushbu mamlakatda istiqomat qilish davomiyligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi: Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida o‘n yil va undan ortiq muddat davomida yashayotgan migrantlarning qariyb 70 foizi qabul qiluvchi mamlakat tilini yuqori darajada egallaganini bildirgan bo‘lsa, yaqinda kelgan migrantlar orasida mazkur ko‘rsatkich qariyb 40 foizni tashkil etadi. Til kurslarida ishtirok etish ham tilni yuqori darajada egallash ehtimolining ortishiga hassa qoshadi[5]. Bu esa lingvistik kompetensiyani yashash muddatining davomiyligi, ta’lim siyosati, ijtimoiy muhit hamda integratsiyaning institutsional mexanizmlari ta’sirida o‘zgarib boradigan „dinamik resurs“ sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Shu bilan birga, til siyosati o‘ziga xos „til filtrlari (linguistic gatekeeping)“ ni shakllantirishga ham qodir. Yevropa migratsiya siyosatiga oid tadqiqotlarda til testlari va lingvistik integratsiyaga qo‘yiladigan talablar migrantlarni saralash mexanizmlari funksiyasini bajarishi mumkinligi ta’kidlanadi[6]. Shunday qilib, til migratsiya oqimlari tuzilmasini shakllantirish jarayonida

bevosita ishtirok eta boshlaydi. Natijada, til nafaqat migratsion mobillikning samarali vositasi, balki migratsiya tizimiga kirish “darvosini nazorat qilib turuvchi posbonga aylanadi va bu holatni S.W. Goodman “gatekeeper” tushunchasi bilan yanada aniqroq ifoda etadi. Bunda gatekeeping tushunchasi muayyan institutning ijtimoiy resursdan foydalanish imkoniyatini belgilovchi mezonlarni o‘rnatadigan vaziyatni tavsiflash imkonini beradi. Migratsiya kontekstida til testi aynan shunday funksiyani bajarishi mumkin: talab etiladigan til sertifikatining mavjudligi muayyan migratsion tartib-taomildan foydalanishning shartiga aylanadi. Migratsiya siyosati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda tilga oid talablar, ayniqsa, oilaviy migratsiya sohasida immigratsiyani nazorat qilish vositalari sifatida qo‘llanilishi mumkinligi ta’kidlanadi[7].

Bu holatga Germaniya tajribasi yaqqol misol bo’la oladi, chunki ushbu mamlakatda birinchilardan bo’lib nemis tili migratsiyani tartibga solishning tarkibiy elementiga aylangan. So’ngi o’n yilliklar davomida mamlakatda migrantlar uchun doimiy faoliyat yurituvchi nemis tilini o’rganish kurslari tizimi ravishda shakllandi va u migrantlarni nemis jamiyatiga integratsiya qilish vazifasini ham amalga oshiradi. Til o’rganish va integratsiya kurslari til va mehnat bozoriga yangi kirib kelgan migrantning jamiyatdagi orientatsiya komponentlarini ham o‘z ichiga oladi. Til kurslari, odatda, B1 darajasiga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lib, orientatsiya kursi esa Germaniyaning huquqiy tizimi, madaniyati va tarixi to‘g‘risida bilimlarni egallashni nazarda tutadi[8]. Natijada, davlatning integratsiya siyosati til kompetensiyasini migrantning jamiyat hayotida mustaqil ishtirok etish imkoniyati bilan bevosita bog‘laydi. Germaniya qonunchiligi, shuningdek, ayrim turdagi yashash huquqlarini muayyan til talablari bilan ham bog‘laydi. Yashash uchun beriladigan ruxsatnomaning turiga qarab, nemis tilini bilish bo‘yicha A1 elementar darajasidan tortib, undan yuqori darajalargacha bo‘lgan talablar qo‘llanilishi mumkin[9].

Shuni ta’kidlash lozimki, germaniyada til shunchaki ta’lim obyekti sifatida namoyon bo’lib qolmasdan, migratsion integratsiyaning huquqiy mexanizmining tarkibiy qismiga aylanadi. Tilning institutsional funksiyasi ta’lim sohasida ham keng qamrovga ega. Nemis tilida olib boriladigan ko‘plab ta’lim dasturlariga qabul qilinish uchun nemis tilini tegishli darajada bilishni tasdiqlash talab etiladi. Binobarin, til kompetensiyasi nafaqat migrantning migratsion maqomini, balki uning ta’lim olishi imkoniyatiga ega bo‘lish imkoniyatini ham tartibga soladi.

Ma’lumotlar tahlil shuni ko‘rsatadiki, til va til bilish individual inson kapitali va davlat institutlari o‘rtasida oraliq mavqega ega bo‘lmoqdz. Individual darajada olib qaralganda, til migrantning shaxiy kompetensiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Institutsional darajada esa u muayyan resurslardan foydalanish imkoniyatining me’yoriy mezoniga aylanadi. Aynan mana shu ikki tomonlama xususiyat til kompetensiyasini zamonaviy migratsiya tadqiqotlari uchun ayniqsa muhim omilga aylantiradi. Bir tomondan, tilga qo‘yiladigan talablar integratsiyaga ko‘maklashishi mumkin, chunki ular qabul qiluvchi jamiyat tilini o‘zlashtirishni rag‘batlantiradi. Boshqa tomondan, haddan tashqari rasmiylashtirilgan til talablari migratsiya uchun qo‘shimcha to‘siqlarni yuzaga keltirishi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

Natijada quyidagi o‘ziga xos ketma-ketlik shakllanadi: til talabi - testdan o‘tkazish - sertifikatlashtirish - migratsion jarayonga kirish imkoniyati - integratsiya. Bunday holatda til Germaniyadagi migratsiyaning ma’muriy infratuzilmasining tarkibiy qismiga aylanadi. Mazkur yondashuv tilni faqat muloqot vositasi sifatida talqin etishning an’anaviy chegaralaridan chiqish va uni migratsion imkoniyatlarni institutsional jihatdan taqsimlash mexanizmi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

O’zbekistondagi vaziyat Germaniya va Evropa tajribasidan shunisi bilan farq qiladiki, bu erda chet tilini bilish va o’rganish, avvalombor, migratsiyaga qadar tayyorgarlik tizimining tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonning zamonaviy migratsiya siyosati mehnat migratsiyasini rejalashtirayotgan fuqarolarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash hamda chet tillarini til o‘qitishini tashkil etishni nazarda tutadi[10].

O‘zbekiston Respublikasi Migratsiya agentligining ma‘lumotlarida chet tilini bilishni xorijiy ish beruvchilar talablariga muvofiqlikning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi[11]. Rasmiy materiallarda, shuningdek, xorijga ishlash uchun yo‘l olayotgan fuqarolarni til va kasbiy jihatdan tayyorlash zarurligi ta’kidlanadi. Migratsiyaning ayrim yo‘nalishlari uchun til sertifikati yoki tilni bilish ishga joylashishning amaldagi zarur shartiga aylanmoqda[12]. Demak, O‘zbekiston uchun til, avvalo, migratsiyaga qadar shakllantiriladigan inson kapitalining eng muhim resursi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, zamonaviy jamiyatda til bilish va unga qo’yilayotgan talablar an’anaviy xususiyatga ega bo’lgan ma’lum bir mamlakat ichidagi milliy til siyosati doirasidan chiqib, global migratsiya infratuzilmasining ajralmas tarkibiy elementiga va samarali migratsiyaning muhim shartlaridan biriga aylanib bormoqda. Zamonaviy migratsiya jarayonlari endilikda alohida migrant va qabul qiluvchi davlat o‘rtasidagi munosabatlar doirasi bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda o’tmishda kuzatilgan xaotik xususiyatga ega bo’lgan migratsiya jarayonlari o’rniga o’ta murakkab, institutsionallashgan global infratuzilma shakllanmoqda va uning tarkibiy tuzilishini shartli ravishda quyidagicha tasavvur qilish mumkin: davlat - migratsiya agentliklari - ta’lim muassasalari - til markazlari - ish beruvchilar - sertifikatlashtirish tashkilotlari - migrant. Mazkur tizimda til barcha bo’ginlarni o‘zaro bog‘lovchi element sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu holat, ayniqsa, tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasida yaqqol ko’zga tashlanadi. Xususan, migranlarning kelib chiquvchi davlatlari ishchilarni xorijiy mehnat bozorlarining talablariga muvofiq tayyorlashdan manfaatdor bo‘lsa, qabul qiluvchi davlatlar esa kelayotgan ishchilarning lingvistik va kasbiy moslashuvini ta’minlashga intiladi. Natijada til siyosatining yangi turi yuzga kelmaqda va bu jarayonlarni migratsiyaga tayyorgarlik shartlarining transmilliy xususiyatga ega bulgan til siyosati bilan bog’lash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD; European Commission. Indicators of Immigrant Integration 2023, 3.3 «Language proficiency».: Settling In. Paris : OECD Publishing, 2023. 322 p. DOI: 10.1787/1d5020a6-en. URL:https://doi.org/10.1787/1d5020a6-en (m.s.: 10.09.2026).
2. Bundesamt für Migration und Flüchtlinge. Integrationskurs. Nürnberg : BAMF. URL: https://www.bamf.de/DE/Themen/Integration/ZugewanderteTeilnehmende/ Integrationskurse/integrationskurse-node.html (m.s.: 10.09.2026).)
3. OECD. Skills on the Move: Migrants in the Survey of Adult Skills. Paris : OECD Publishing, 2023. URL: https://www.oecd.org/skills/ (m.s.: 07.09.2026).
4. Баранова В. В., Федорова Е. В. Регулирование языкового ландшафта в российских городах: многоязычие и неравенство. 2020. https://cyberleninka.ru/article/n/regulirovanie-yazykovogolandshafta-v-rossiyskih-gorodah-mnogoyazychie-i-neravenstvo (m.s.:12.09.2016)
5. OECD; European Commission. Indicators of Immigrant Integration 2023: Settling In. Paris : OECD Publishing, 2023. 322 p. DOI: 10.1787/1d5020a6-en. URL: https://doi.org/10.1787/1d5020a6-en (m.s.: 10.09.2026).
6. Wodak R., Boukala S. (Supra)National Identity and Language: Rethinking National and European Migration Policies and the Linguistic Integration of Migrants. Journal of Language and Politics. 2015. Vol. 14, No. 1. P. 1–24. https://www.cambridge.org/core/journals/annual-review-of-applied-linguistics/ article/abs/ (m.s.:14.09.1926).
7. Goodman S. W. Controlling Immigration through Language and Country Knowledge Requirements // West European Politics. 2011. Vol. 34, No. 2. P. 235–255. https://www.researchgate.net/publication/254272105_ Immigration_ Control _through_Language_and_Country_Knowledge_Requirements (m.s.:13.09.1926).

8. Bundesamt für Migration und Flüchtlinge (BAMF). Integrationskurs. Nürnberg: BAMF. URL: https://www.bamf.de/DE/Themen/Integration/ Zugewanderte Teilnehmende/Integrationskurse/integrationskurse-node.html (m.s.:15.09.1926).
9. Bundesrepublik Deutschland. Aufenthaltsgesetz (AufenthG); Bundesamt für Migration und Flüchtlinge. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/aufenthg_2004/ (m.s.:17.09.1926).
10. O‘zbekiston Respublikasi Migratsiya agentligi. Umumiy ma’lumot [Elektron resurs]. URL: https://gov.uz/oz/migration (m.s.:10.09.1926).
11. O‘zbekiston Respublikasi Migratsiya agentligi. Xalqaro rekruting va ish o‘rinlarini aniqlash boshqarmasi [Elektron resurs]. URL: https://gov.uz/oz/migration (m.s.:10.09.1926).
12. O‘zbekiston Respublikasi Migratsiya agentligi. Xorijga ishlashga borish — mas’uliyatli qaror [Elektron resurs]. 13.01.2026. URL: https://gov.uz/oz/migration (m.s.:10.09.1926).